

TARVUZ NAVLARINI YETISHTIRISHDA INTENSIV TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.**Mavlonov Zavqiddin Sherali o'g'li***Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Navoiy ilmiy tajriba stansiyasining Sabzavot va poliz ekinlarining seleksiyasi bo'limi laboratoriya mudiri.***Esanov Farhod Farmonovich***Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Navoiy ilmiy tajriba stansiyasi direktori***Nazarov Nizomjon Nazirjon o'g'li***Sabzavot, Poliz ekinlari va Kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Navoiy ilmiy tajriba stansiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari***MAQOLA MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.12.2025**Revised: 26.12.2025**Accepted: 27.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***Mulchalash, tarvuz, Sharq ne'mati, Shirin, Qo'ziboy, Miramir, plyonkali yopqich, tunnel, dekada, issiqsevar*

Ushbu maqolada tarvuzning respublikamizda yetishtirilayotgan navlari haqida ma'lumot, tarvuz navlarini erta yetishtirish, aholining yil bo'yi yangi tarvuz mahsulotlarini iste'mol qilish muddatini uzaytirish, yil davomida vaqtidan oldinroq tarvuz iste'molini yo'lga qo'yish uchun bir nechta intensiv usullari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Tarvuz ekinlari janubdan Afrikadan kelib chiqqanligi bois issiqsevardir. Tarvuzning urug'i +14-16 °C da una boshlaydi. Harorat bundan pasayganda urug'lar yerda chirib qoladi, siyrak unib chiqadi. Shuning uchun tarvuz ekinlarini juda erta – yer qizimasdan ekish mumkin emas. Urug'ning unib chiqishi uchun qulay harorat +20 °C hisoblanadi. Sutka davomida harorat +15-32 °C atrofida o'zgarib turishi mumkin. Ana shunday haroratda urug' ekilgandan keyin 5-6 kunda maysalar ko'rina boshlaydi. Haroratning pasayishi maysalarning unib chiqishini kechiktiradi. Tarvuzning o'sib rivojlanishi uchun optimal harorat +25-30 °C hisoblanadi. Harorat +12-15 °C gacha pasaysa, ekinlarning guli

to'kilib ketadi, ular o'sishdan to'xtaydi va sekin-asta qurib qoladi. 0 °C yoki -1 °C tarvuz ekinlari maysalarini yoppasiga nobud qiladi. Harorat +3-5 °C ga tushib qolsa, voyaga yetgan o'simliklari ham zararlanadi. Tarvuz nihoyatda issiqsevar o'simlik bo'lishiga qaramay, issiqqa unchalik chidamli emas. Barglardagi oqsil +45-50 °C da iviydi. Biroq tarvuzda transpiratsiya jarayoni nihoyatda jadal borganligidan o'simlik sovib qoladi. Bu hol ma'lum darajada uning issiqlikka chidamliligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat reyestrda tarvuzning 47 ta navlari hududlashtirilgan, shulardan 15 ta mahalliy, qolgani chet el navlaridir. Hozirgi kunda Respublikamiz hududlarida tarvuzning Shirin, Sharq ne'mati, Dilnoz, Qo'ziboy, Xoller, L-64, Miramir kabi navlar ekib yetishtirilmoqda. Tarvuzdan mo'l va sifatli hosil, navdorligi 99% va unuvchanligi 90-95% dan kam bo'lmagan urug'dan foydalanish zarur. Urug'lar ekishdan oldin osh tuzining 5% eritmasida bo'ktirib ivitiladi. Natijada urug'larning to'q va yirik fraktsiyalari suv ostiga cho'kib, mayda va puch urug'lar suv betiga qalqib chiqadi. Suv ostida qolgan urug'lar olinib toza suvga chayib nomi qochguncha quritiladi. Urug'larni +40-50 °C hisobida 4-5 soat qizdirib olinsa, urug'larning kasalliklarga chidamliligi oshishi bilan bir qatorda onalik gullar ko'payib hosildorlik oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Urug'larning unib chiqish qobiliyatini oshirish uchun ekish oldidan mis kuporosi 0,5-1,0% li eritmasida 1 soat davomida ivitib olinsa, hosildorlikni 13-14% ga, urug' chiqishini 8,7% ga oshirishi ilmiy isbotlangan. Respublikamiz aholisini yil bo'yi yangi tarvuz mahsulotlarini iste'mol qilish muddatini uzaytirish usullari:

1. Ertagi mahsulot etishtirishning har xil usullarini qo'llash.
2. Uzoqroq saqlab qo'yishga yaraydigan kechpishar navlarni joriy etish va mahsulotni saqlab qo'yish usullarini takomillashtirish.

Aholining yil bo'yi yangi tarvuz mahsulotlarini iste'mol qilish muddatini uzaytirish yil davomida vaqtdan oldinroq tarvuz iste'molini yo'lga qo'yish uchun bir nechta intensiv usullar mavjud. Ertachi tarvuz mahsulotlarini yetishtirish usullariga tuproqni mulchalash, ekinni ko'chatdan ekish, vaqtinchalik plyonka yopqich ostida ko'chatidan va urug'idan mulchalab ekish, himoyalangan isitiladigan va isitilmaydigan issiqxonalarda yetishtirish kabi usullar qo'llaniladi.

Birinchi usul bu tuproqni mulchalash. Mulchalash ishi urug' ekish bilan bir vaqtda yoki ekishdan keyin o'tkaziladi. Bunda ekin qatorlari ustiga plyonka yopilib, uning chetlari tuproq bilan bostirib qo'yiladi. Ekin maysalari paydo bo'lganidan keyin o'simliklarning yuzaga chiqib olishi uchun ularning ustiga to'g'rilab plyonkadan teshiklar ochib qo'yiladi.

Plyonka o'simliklar butun vegetatsiya davri davomida qoldirilib, hosil tugagandan so'ng olib tashlanadi. Bu usulda ekin ochiq erga ekish muddatidan bir-ikki hafta ilgari ekiladi. Tuproqni mulchalab ko'chat bilan ekish usulida ham ertagi mahsulot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tarvuz yetishtirishni tezlashtirishning eng samarali usuli ochiq yerlarga ekinni ko'chatdan ekishdir bu ikkinchi usul bo'lib ko'pchilik dehqonlarimiz aynan shu usuldan foydalanadilar. Olingan ariqlarga mulcha qilib oq plyonka qoplanadi. Plyonka har 70 sm oralig'ida teshib chiqiladi. Teshib chiqilgan joylarga fosforli o'g'it suyultirib solinadi. Suyultirilgan fosforni tayyorlash uchun 10 litr suvga 2 kg ammofos o'g'iti solinib qaynatiladi va eritiladi. Tayyorlangan eritmani 10 l. suvda aralashtiriladi va har bir uyaga 1 litr hisobida quyib chiqiladi. Bir gektar maydonga 100 kg fosforli o'g'it sarflanadi. Bir gektarga 7100 dona ko'chat o'tqaziladi.

Uchinchi usul. Vaqtinchalik plyonka-yopqich ostida ko'chatidan mulchalab ekish. Vaqtinchalik plyonkali-yopqich ostida o'stirish uchun tarvuzning tezpishar, qisqa palakli, kasallikka chidamli navlaridan foydalaniladi. Maxsus tayyorlangan 35-45 kunlik ko'chatlar ekilib bir qavatli duga qilib polietilen plyonka qoplanadi.

Yerga ko'chat o'tqazilgandan yoki urug' ekilgandan keyin darhol tunnel ko'rinishidagi plyonkali yopqich o'rnatishga kirishish kerak. Har bir tunnel o'rtasidan sug'orish jo'yagi o'tgan tasma yerning ikki ekin qatorini yopadi. Tunnelning kengligi 160-180 sm, balandligi 60-70 sm, uzunligi (50-60 m) sharoitga qarab bo'ladi. Tasmalar orasidagi bo'shliq 180-190 sm bo'lib, ochiq qoldiriladi va u yo'lak xizmatini o'taydi. Keyinchalik bu yo'lakka o'simlikning palagi joylashadi.

To'rtinchi usul – g'alladan bo'shagan joylarga 30-35 kunli ko'chatlar ekilganda kech kuzga qolmay hosil yig'ib olinadi. Kechki navlar terib olingandan keyin uzoq muddat saqlanish xususiyatiga ega bo'ladi. Birinchi usulda hosil iyun oyining uchinchi dekadasi, ikkinchi usulda iyun oyining birinchi yarmida va uchinchi usulda may oyining uchinchi o'n kunligida uziladi. Takroriy muddatda ekilgan to'rtinchi usulda sentyabr oyining uchinchi o'n kunligida mevalar pishib yetiladi va yoppasiga terib olinadi. Albatta, mevalarning pishib yetilish davri ob-havo, tuproq sharoiti, ekish muddatlari, navlarning erta yoki o'rtapisharligiga bog'liq holda o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo‘riev X.Ch., Ashurmetov O.A Poliz ekinlari biologiyasi va etishtirish texnologiyasi Toshkent – 2000. B 31-34-.

2.Hakimov R.A., Hakimov A.S., Toshmuhammedov A.A. Sabzavot poliz ekinlari urug‘chiligi. Toshkent, 2003. b 144.

3. Alimuhammedov S.S., Xoldorov M.U. Urug‘dorilagich preparatlarining qovun va tarvuz urug‘lari unuvchanligiga ta’siriG‘G“Respublikada sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka etishtirish istiqbollari, muammolari va echimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2019. – b 375-379.

4.Balashev N.N. “Polizchilik” Toshkent, 1975. b 17-25, 98-99.

